

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА



2021 йил 6-сон



Бош мұхаррір: Наманган давлат университети ректори С.Т.Турғунов

Масъул мұхаррір: Илмий ишилар ва инновациялар бүйіч проректор М.Р.Қодирхонов

Масъул мұхаррір ұрнинбосари: Илмий тадқықот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бүлими бошлиги Р.Жалалов

ТАХРИРХАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аззамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тұхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов. ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Раширова, акад. А.Тұраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.н.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Қишлоқ хұжалиғи фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазақов.

Тарих фанлари: – акад. А.Асқаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д, проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: – и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари: – акад., Ж.Бозорбоев, ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: – акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуқов, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н, доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: – б.ф.д. F.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д.,проф З.Нишанова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник мұхаррірлар: Н.Юсупов, Г.Акмалжонова

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уйчи құчаси, 316-үй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 Факс: (0369)227-07-61 e-mail: ilmiy@inbox.uz

Үибу журнал 2019 йилдан бошлаб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсаты қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бүйіч Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий нағыз жаһарларын чөп этиши тавсия этилған илмий нашрлар рўйхатига киритилген.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журналы Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси хамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чөп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт түркүм рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 10.05.2021 йилдаги кенгайтирилген ийгилишида муҳокама қилиниб, илмий түпнама сифатида чөп этишига рухсат этилған (Баённома № 6). Мақолаларнинг илмий савияси ва көлтирилған маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021



Ya'ni Ollohammaning qalbiga jo bo'lgani kabi Shayton ham kimsalarning o'zligini zabit etuvchi ko'rinasib bir kuch ekanligini, unga bo'yusunish yoki bo'yusunmaslik insonlarning o'z qo'lida ekanligi haqidagi mazmun she'r mazmuniga singdirilgan.

Tadqiqotchilar lirik turkumni uning tarkibidagi she'rlarni mavzuviy jihatdan saralashdan, she'rdan ajralib turadigan bir qator xususiyatlarni aniqlashdan boshlashni ma'qul ko'radilar. Ko'rinaliki, A.Oripovning "Haj daftari" turkumi tarkibidagi she'rlar turkumlilikka xos bo'lgan qator xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Ushbu xususiyatlarning nisbatan to'liq to'plami tarkibni shakllantirish, lirik turkumga kiritilgan she'rlarning mustaqilligi, ularning bir markazga yagona mavzu va maqsad orqali birlashtirilgani, she'rlarda lirik qahramonning yagonaligi, tasvirdagi makon va zamon birligi va boshqalarda ko'rindi. Mana shu jihatlarning barchasi yuqorida tahlil etilgan turkum she'rlarda kuzatildi.

Turkumlilik yuqorida ham aytiganidek, yangi shakl emas. "Badiiy asarlar orasidagi chegaralarni buzishning eng muhim shakli ularning tsikllanishi hisoblanadi. Shoir o'z she'rlarini tsikllarga birlashtirishi (bu XIX-XX asrlarda keng tarqalgan edi) ko'pincha ilgari yaratilganlarni birlashtirgan yangi asarning paydo bo'lishi bo'lib chiqadi. Boshqacha aytganda, she'riyat tsikllari mustaqil asarlarga aylanadi" [2]

A.Oripovning ham she'riy turkumlari bir xil taassurot asnosida yaratilgan turli she'rlarning birlashmasi hisoblanadi. Ushbu turkumni mustaqil lirik she'rlarning yuqori darajadagi yaxlitlikka birlashtirilganligidan hosil bo'lgan va yuqoridagi xususiyatlar bilan tavsiflanganda yuzaga keladigan poetik birlikning o'ziga xos shakli sifatida ko'riganligi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Vorontsova-Maralina Anna Albertovna. Sergey Dovlatovning nasri: filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchum yoz. dissertatsiyasi. – M., 2004 yil. 401-b.
2. V.E. Xalizev. Teoriya literaturo'. – Moskva «Vo'sshaya shkola». 1999. 240 b. 93-95-bet.
3. Oripov A.Tanlangan asarlar. – Toshkent, Sharq, 2000.
4. www.ziyouz.com kutubxonasi. Abdulla Oripov. Haj daftari. pg. 3-12.

FEMINIST YOZUVCHILAR ASARLARIDA BADIY TASVIR VOSITALARINI QO'LLANILISHI XUSUSIDA.

Namangan Davlat Universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasi katta o'qituvchisi Nargiza Abdullayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan XIX asr feminist yozuvchisi, ingliz adabiyoti yorqin namoyondasi Charlotte Brontening mashxur "Jeyn Eyr" asarida badiiy tasvir vositalaridan qay darajada foydalanilgani, asarda feminist yozuvchining ayrim o'ziga hos usullardan, leksik-stilistik bo'yoqdor vositalardan foydalanib insonlar his tuyg'ularini va ichki kechinmalar tasvirlarini ifoda eta olgani borasida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'z va iboralar: feminist adabiyot vakili, tabiat va joy tasviri, leksik-stilistik bo'yoqdorlik, tasviriylar va ifoda vositalair, go'zallikni ko'ra bilish.

USING MEANS OF LITERARY DISCRIPTION IN THE NOVELS OF FEMINISTS

Namangan State University Chair of Practical English language senior teacher Nargiza Abdullaeva



Annotation: In this article it was discussed some ideas about means of literary description and how these means used successfully for describing emotions and feeling of person by famous English playwright Charlotte Bronte who lived and worked in the XIX century. The main aim of this article is to analyze the ways of giving descriptions and all of them were described with literary portrait.

Key words: representative of literary, feminist, description of place and nature, lexical and stylistic drawings, means of literary description, playful descriptions.

ОБ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ СРЕДСТВ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ПИСАТЕЛЕЙ ФЕМИНИСТОК.

Кафедра практический английского языка Наманганского Государственного

Университета старший преподаватель Наргиза Абдуллаева

Аннотация: Эта статья посвящена анализу степени использования художественных изобразительных средств, лексико-стилистических окрасок, предоставлены идеи о способности использования различных художественных средств для описания чувство и внутреннее ощущение в работе знаменитой писательницы 19 века Шарлотте Бронте "Джейн Эйр".

Ключевые слова: представитель феминистской литературы, описание внутреннее чувство, лексико-стилистическая окраска, средства описания и выражения, способность видеть прекрасное.

Jaxon adabiyotiga nazar tashlasak ayniqsa XIX asr ingliz adabiyotida bir turkum ijtimoiy real hayotiy voqealarni aks ettiruvchi romanlar alohida ro'l o'ynaydi. Bu asarlar asosan o'zining ta'sirchanligi, kitobxon ko'z o'ngida voqea va xodisalarning yaqqol aks etishi bilan xarakterlidir. Garchi muallif bayon etayotgan voqelik bilan o'quvchi davri va makonida katta tafovut bo'lsada, yuqoridagi kabi asarlarni mutoala qilgan kitobxon o'zini o'sha davrga qaytganday his qilishi mumkin. Ayni shu borada biz ushbu maqolada XIX asrda yashab ijod etgan ingliz feminist yozuvchisi Charlotte Brontening ijodiga mansub "Jeyn Eyr" romaniga murojaat qilmoqchimiz. Ushbu asar o'z davrining eng muhim jihatlaridan bo'lgan jamiyatning siyosiy qarashlarini, ijtimoiy tengsizlik tafovutlarini muallif tomonidan yuqori badiiylik bilan sayqallangan holda yozilgan. Yosh ijodkor yozuvchining badiiy adabiyot sahnasidagi kashfiyotlaridan biri ichki ruhiyat va ijtimoiy "taqdir" o'rtaсидаги kurashni mohirona ochib bera olganligida namoyon bo'lgan. Asarning jaxon adabiyotida bu darajada yuqori baxolanganligining yana bir jixati asarda badiiy tasvir vositalarining oqilon foydalanganligidadir.

Badiiy asarda tasvirlanayotgan narsani jonli tasvirlash, his-tuyg'u va kechinmalarni yorqin ifodalashga xizmat qiluvchi vositalarni umumlashtirib "badiiy tasvir va ifoda vositalari" deb ataladi. [1] Badiiy tasvir va ifoda vositalari badiiy tilning belgilovchi xususiyati emas, balki belgilovchi xususiyat bo'lmish obrazlilik(tasviriylig) va emotsiyonallikni kuchaytiruvchi unsurlardir. Bizga ma'lumki, badiiy til umumxalq tili bazasida yuzaga keladi. Yozuvchi umumxalq tilidan foydalanan ekan, umumodatlangan normadan og'adi va shu "og'ish"dan ma'lum badiiy-estetik maqsadni ko'zda tutadi. Bu xil og'ishlar tilning turli sathlarida - fonetik, leksik, morfologik, semantik, sintaktik sathlarda kuzatilishi mumkin. Badiiy tasvir va ifoda vositalari muallifning muayyan badiiy-estetik maqsadga erishish uchun umumodatlangan



normadan og`ishi natijasida yuzaga keladi, ular tasvirning jonli va to`laqonli bo`lishiga, ifodaviylikning kuchayishiga xizmat qiladi. Sharlotte Brontening "Jeyn Eyr" asarida xam yuqorida keltirilgan fonetik, leksik, morfologik, semantik, sintaktik sathlarda og`ishlarni uchratishimiz mumkin.

Sharlotte Brontening "Jeyn Eyr" romanida badiiy tasvir va ifoda vositalarini ifodalash uchun semantik satxdagi og`ishlar ko`p kuzatiladi. Ma'lumki, nutq jarayonida biz so`zlarni o`z ma'nosida yoki ko`chma ma'noda qo'llashimiz mumkin. So`zning odatiy ma'nosidan o`zga ma'noda qo'llanishi semantik sathdagi og`ish sanaladi. Ko`chma ma'noda qo'llangan so`zlarning umumiyligi nomi trop (ko`chim) deb yuritiladi. So`z ma'nosi ko`chishining, tropning metafora, metonimiya, sinekdoxa, kinoya singari bir qator ko`rinishlari mavjud. Ma'lumki metafora - "o'xshashlik" asosidagi ma'no ko`chishi bo`lib, bunda ma'no ko`chishi o'xshashlik asosida ro'y beradi. Metafora ikki usulda amalga oshadi: a) ma'no o'xshashlik asosida ko`chadi: b) metafora -dek, -day, kabi, singari, yanglig', xuddi, go'yo so'zlari yordamida hosil qilinadi.[2] "Jeyn Eyr" asaridagi metaforalar orqali berilgan tasviriy ifodalarga murojaat qilamiz. Asarning ilk bobida Jeyn Eyr o'zining amakivachchasi Jon Rid bilan bo`lgan tortishuv natijasidagi suxbatida shunday deydi:

"Wicked, cruel boy!" I said. "You are like a murderer-you are like a slave-driver- you are like the wicked Roman emperors!"[3]

Xuddi shu fikrni V.Stanevich tomonida rus tiliga qilingan tarjimada quyidagicha berilgan.

"Противный, злой мальчишка!" крикнула я. Ты-как убийца, как надсмотрщик над рабами, ты- как римский император![4]

Agar Jeyn Eyrning ushbu nutqini o'zbek tiliga o'giradigan bo'lsak "Sen gunohkor, zolin bola!" dedim men."Sen qotilga o'xshaysan-sen insonlarni quldek ishlatuvchilariga o'xshaysan-sen yomon Roman imperatorlariga o'xshaysan" deb olish mumkin. Shu ikki o'giz so`z bilan berilgan nutqda muallif "like" so`zini berish orqali sinekdoxadan foydalangan va bu so`zga qayta qayta murojaat qilish bilan qaxramonning ichki tuyg'usini ya`ni uning o'ta g'azabda ekanligini ochib berishga xarakat qilgan. Ayni shu o'rinda yana bir tasviriy ifoda vositalaridan bo`lgan leksik og`ish xaqida fikr yuritamiz. Leksik sathdagi normadan og`ish yozuvchining umumxalq tili bazasidagi leksik vositalardan foydalanishida ko`rinadi. Ma'lumki, umumxalq tilidagi so`zlar o`zlarining nominativ holatida ham tasviriylik va ifodaviylik imkoniyatlari jihatidan farqlanadi. Ya`ni, ijodkor ifoda va tasvirni so`z ma'nosiga daxl qilmagan holda, mavjud so`z xazinasidan "so`z tanlash" hisobigagina kuchaytirishi mumkin bo`ladi. Charlotte Bronte ham yuqoridagi qaxramonni ichki kechinmalarini ochib berish uchun "slave-driver" va "emperor" so`zlarini tanlagan. Bu so`zlar rus tiliga "надсмотрщик над рабами" kabi tarjima qilingan bo`lsa, biz "slave-driver" qo'shma otni so`zmi-so`z tarjima shaklini olsak "qul xaydovchisi" ma`nosini beradi va tasviriy ifoda butunlay o'zgarib ketadi. Shuning uchun muallif tomonidan qaxramonning qay darajada jaxl otiga minganini kitobxonga to`laqonli yetkazish uchun so`zmi-so`z emas aksincha "insonlarni quldek ishlatuvchi" iborasi orqali berish maqsadga muvofiqdir. Bu kabi leksik og`ishlardan foydalanish kitobxonga davr koloritini(ruhini) berish uchun, tasviriy bo`yoqdorlikni oshirish uchun qo'l keladi. Lug`atdagi eskirgan so`zlar — arxaizm va istorizmlar odatdagagi so`zlashuvda ishlatilmasligi ma'lum. Biroq ular tarixiy mavzudagi badiiy asarlarda davr koloritini berish uchun juda zarur. Yuqoridagi berilgan misolda ham xuddi shuni uchratishimiz mumkin.



Asarning yana bir qismida muallif qaxramonning qo'rquv hissini badiiy tasvir vositalari orqali ifodalab berish uchun semantik sath og'ishlaridan biri metonimiya murojaat qiladi. Bizga ma'lumki metonimiya - "aloqadorlik" asosidagi ma'no ko'chishidir. Bunda narsa-buyum o'ziga aloqador boshqa nom bilan ataladi. Romanda shunday deyiladi:

"I thought that the light was some herald of a vision coming from another world. In fact it must have been the gleam of a lantern carried by someone outside in the garden, but my nerves were badly shaken by all that had happened. My heart began to beat fast and my head grew hot; there was a sound in my ears like rushing of wings. I could bear no more. My endurance broke; I rushed to the door and shook it with all my might in a desperate panic, calling and screaming as loudly as I could."

Xuddi shu qismni ruscha tarjimasida shunday berilgan.

"Теперь я охотно готова допустить, что это была полоска света от фонаря, с которым кто-то шел через лужайку перед домом. Но в ту минуту, когда моя душа была готова к самому ужасному, а чувства потрясены всем пережитым, я решила, что неверный трепетный луч-вестник гостя из другого мира. Мое сердце судорожно забилось, голова запылала, уши наполнили шум, подобный шелесту крыльев; я ощущала чье-то присутствие, что-то давило меня, я задыхалась; всякое самообладание покинуло меня."

Asarning ushbu qismini o'zbek tiliga tarjimasini quyidagicha berish mumkin. "Men yorig'likni boshqa olamdan kelgan xabarchi ko'rinishida ekanligini o'yladim. Bu kimdir tomonidan bog'dan olib kirib kelayotgan shamning kuchsiz yorug'ligi edi, lekin mening asablarim bo'lib o'tgan barcha noxushliklardan qattiq qaqshar edi. Yuragim tez urushni boshladidi va boshim ham qiziy boshladidi, qulog'im ostida qanotlarning shippillagan ovozi eshitilgandek bo'ldi. Men ortiq chidab tura olmas edim. Mendagi chidam-bardosh chil chil bo'di. Eshikni jon xolatda tutib, umidsizlarcha shu qadar vaxima bilan baqirib itara boshladim." [5]

Tarjimadan ko'rinx turibdiki muallif "boshqa olamdan kelgan xabarchi yorug'lik", "silkinib qaqshagan asab" yoki "chil-chil bo'lib singan bardosh" kabi iboralar bilan qaxramonning vaxima ichidagi qo'rquv xissini ifodalab berish uchun metonimiyalardan unumli foydalangan.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, xar tomonlama ta'sirli asarlar qatorida "Jeyn Eyr" romani xam kitobxonada katta taassurot qoldiradi. Buning asl sabablaridan biri asardagi badiiy tasvir va ifoda vositalaridan bo'lgan semantik satx og'ishi ya'ni metonimiya, snekdoxa va metaforalardan oqilona foydalanilganligidir. Muallif shu usullar orqali insonlarning xis tuyg'ularini va ichki kechinmalarini ifodalashga xarakat qilgan va qaysidir ma'noda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishgan deb o'layman. Ushbu asarning va muallifning bir muxlis kitobxoni sifatida aytishim joizki, asarni qayta-qayta o'qigan sari, undagi yuqorida berilgan kabi misollarga ko'p marotaba uchrash mumkin va bu albatta muallifning moxir til boyligiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Dilmurod Quronov. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent.2004.
2. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish Toshkent. 2008.
3. Шарлотте Бронте. "Джейн Эйр" перевод с английского В. Станевич. Moskva.1990.
4. Charlotte Bronte "Jane Eyre" adapted by Margery Green Macmillan Publishers Limited. 2009.



ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHILOLOGICAL SCIENCES

10.00.00		
48	Ошибки в письменной работе студентов	
	Хамдам-зода Л	251
49	Sinxron tarjima san'atini egallash strategiyalari	
	Abdullayeva G. G	257
50	Индивидуальные вариации в овладении вторым языком	
	Бобокулова Г.Ш	263
51	Эртак ва унинг тарихига бир назар	
	Имяминова Ш.С.....	267
52	Comparative research of english and Uzbek toponyms	
	Ismatova N.M	270
53	Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida "Happiness" va "Baxt" kontseptining ifodalanishi	
	Jumayeva O.I	275
54	Теория множественного интеллекта и изучение языка	
	Каххорова Ш.Ш	279
55	Tetralogiyaning tadrijiy taraqqiyoti	
	Qo'yiliyeva G.N	283
56	Иновационные методы обучения английскому языку для специальных целей	
	Мирходжаева М.И	287
57	Oliy o'quv yurtlarida rusiyabon talabalarga o'zbek tilini o'qitish muammolari	
	Normatova Sh.U	291
58	Abdulla Oripovning "Haj daftari"she'riy turkumi haqida	
	Fayzullayeva O.X	295
59	Feminist yozuvchilar asarlarida badiiy tasvir vositalarini qo'llanilishi xususida	
	Abdullayeva N	299
60	Yetuk o'zbek adibi Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asari misolida tarixiy inversiya	
	Naimova A.M	303
61	Тилшуносликда матн талқини	
	Қозоқова Н.А	308
62	Обучение Английскому языку с помощью литературы	
	Курбонова Ш.Х	312
63	Frazeologiyani o'rGANISH va inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahlili	
	Saidova Z.X	316
64	Ўзбек тилида тарз ифода воситаларининг морфологик, синтактик, лексик ва услубий ифодаланиши	
	Абдуллаев А	320